«TASDIQLANGAN»
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi"
davlat muassasasi
Farmakologiya qo'mitasi
«09» 09 2026 r. № 16

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA
EPSIN

Preparatning savdo nomi: EPSIN
Ta'sir etuvchi modda (XPN): arginin
Dori shakli: infuziya uchun eritma, 42 mg/ml
Tarkibi:
Har 100 ml eritma quyidagilarni saqlaydi:
Faol modda: L-arginin gidroxloridi 4,20 g
Yordamchi modda: Inyeksiya uchun suv
Ta'rifi: tiniq, rangsiz yoki deyarli rangsiz, yot aralashmalarsiz eritma.
Farmakoterapevtik guruhi: Qon va qon yaratish tizimi. Qon o'rnini bosuvchi va perfuzion eritmalar. Vena ichiga yuborish uchun eritmalarga qo'shimchalar. Aminokislotalar. Arginin gidroxloridi.
ATK kodi: B05XB01

Farmakologik xususiyatlari
Farmakodinamikasi
Arginin (a-amino-5-guanidinvalerian kislotasi) – shartli almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar sinfiga kiruvchi aminokislota va organizmning ko'p sonli hayotiy muhim funktsiyalarining faol va har tomonlama hujayra boshqaruvchisi hisoblanadi, organizmning og'ir holatlarida muhim protektor samaralar nomoyon qiladi.
EPSIN antigipoksik, membranalarni barqarorlashtiruvchi, sitoprotektor, antioksidant, antiradikal ta'sir ko'rsatadi, dezintoksikatsion faollik nomoyon qiladi, o'zini oraliq almashinuv va energiya bilan ta'minlash jarayonlarining faol boshqaruvchisi sifatida nomoyon qiladi, organizmda gormonal muvozanatni tutib turilishida ma'lum rol o'ynaydi. Arginin qonda insulin, glyukagon, somatotrop gormoni va prolaktinning miqdorini oshirishi ma'lum, prolin, poliamin, agmatinning sintezida ishtirok etadi, fibrinogenoliz, spermatogenez jarayonlariga kirishadi, membranalarni depolyarizatsiyalovchi ta'sir ko'rsatadi.
Arginin jigarda mochevina sintezi siklida asosiy substratlardan biri hisoblanadi. Preparatning gipoamoniemik samarasi ammiakni mochevinaga aylanishini faollashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Antioksidant, antigipoksik va membranalarni barqarorlashtiruvchi faolligi tufayli, gepatoprotektor ta'sir ko'rsatadi, gepatotsitlarda energiya bilan ta'minlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
EPSIN endoteliotsitlarda azot oksidining sintezini katalizlovchi ferment – NO-sintetaza uchun substrat hisoblanadi. Preparat gualinattsiklazani faollashtiradi va tomirlarning endoteliysida siklik guanidinmonofosfatning (tsGMF) darajasini oshiradi, VCAM-1 va MCP-1 adgeziya proteinlarning sintezini susaytiradi, shunday qilib, aterosklerotik blyashkalar xosil bo'lishi va rivojlanishini oldini oladi, qon-tomirlar devorining kuchli vazokonstriktori va silliq miotsitlarning proliferatsiyasi va migratsiyasining stimulyatori hisoblangan endotelin-1 sintezini susaytiradi. EPSIN shuningdek oksidativ stressning kuchli endogen stimulyatori – asimmetrik dimetilargininning sintezini susaytiradi. Preparat T-hujayralarni ishlab chiqaruvchi ayrisimon bezning faoliyatini rag'batlantiradi, jismoniy yuklama vaqtida qondagi glyukozaning miqdorini boshqaradi. Kislota xosil qiluvchi ta'sir nomoyon qiladi va kislota-ishqor muvozanatini to'g'irlanishiga yordam beradi. EPSIN yaqqol kislota xosil qiluvchi ta'sir ko'rsatadi va kislota-ishqor muvozanatini to'g'irlanishiga yordam beradi.

Farmakokinetikasi

Vena ichiga uzluksiz infuziya qilinganida arginin gidroxloridining qon plazmasidagi maksimal kontsentratsiyasi yuborish boshlanganidan keyin 20-30 minut o'tgach kuzatiladi. EPSIN yo'ldosh to'sig'i orqali o'tadi, buyrak kalavalarida filtrlanadi, lekin buyrak naychalarida deyarli to'liq qayta so'riladi.

Qo'llanilishi

Yurak va bosh miya tomirlarining aterosklerozi, periferik tomirlarning aterosklerozi, shu jumladan vaqti-vaqti bilan avj oluvchi oqsoqlik, diabetik angiopatiya, yurak ishemik kasalligi, arterial gipertenziya, o'tkazilgan o'tkir miokard infarkti va bosh miyada qon aylanishini o'tkir buzilishidan keyingi holat, miokardiopatiya, surunkali yurak yetishmovchiligi, giperxolesterinemiya, stenokardiya, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari, interstitsial pnevmoniya, idiopatik o'pka gipertenziyasi, surunkali postembolik o'pka gipertenziyasi, turli etiologiyali o'tkir va surunkali gepatitlar, giperamoniemiya, gipoksik holatlar, rekonvalestsentsiya jarayonidagi astenik holatlar, shu jumladan infektsion kasalliklar va operativ aralashuvlardan keyingi holatlar, metabolik atsidoz, ayrisimon bezning funktsiyasini pasayishi, homila rivojlanishini kechikishi va preeklampsiyada qo'llanadi.

Qo'llash usuli va dozalari

Preparat vena ichiga tomchilab birinchi 10-15 minutda minutiga 10 tomchi tezlikda yuboriladi, so'ngra yuborish tezligini minutiga 30 tomchigacha oshirish mumkin.

Preparatning sutkalik dozasi – 100 ml eritmani tashkil etadi.

Markaziy va periferik tomirlardagi qon aylanishini og'ir buzilishlarida, intoksikatsiya, gipoksiya, astenik holatlarning yaqqol ko'rinishlarida preparatning dozasi sutkada 200 ml gacha oshirilishi mumkin.

Infuzion eritmani maksimal yuborilish tezligi soatiga 20 mmoldan oshmasligi kerak. 12 yoshgacha bolalar uchun preparatning dozasi 1 kg tana vazniga sutkada 5-10 ml ni tashkil etadi.

Metabolik alkalozni davolash uchun doza quyidagi tarzda hisoblanishi mumkin:

$$\frac{\textit{arginin gidroxloridi (mmol)}}{\textit{ishqorni ortiqchasi (Be) (mmol/l)}} \times 0{,}3 \times \textit{kg tana vazni}$$

Yuborishni hisoblangan dozaning yarmidan boshlash kerak. Qo'shimcha tuzatish kiritish kislota-ishqor muvozanatining yangilangan natijalari olingandan keyin o'tkazilishi kerak.

Nojo'ya ta'sirlari

Bosh og'rig'i, qizish hissi, eritma yuborilgan joyda flebit. Kam hollarda allergik reaktsiyalar bo'lishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan xolatlar

Preparatga yuqori sezuvchanlik, buyraklar funktsiyasini og'ir buzilishlari, giperxloremik atsidoz; anamnezida allergik reaktsiyalar; kaliyni tejovchi diuretiklarni, shuningdek spirinolaktonni qo'llash, 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

EPSIN qo'llanganida, buyrak yetishmovchiligi fonida spirinolakton qabul qilayotgan yoki qabul qilgan bemorlarda preparat yaqqol va turg'un giperkaliemiya chaqirishi mumkinligini hisobga olish kerak. Oldindan kaliyni tejovchi diuretiklarni qo'llash ham qonda kaliyning kontsentratsiyasini oshishiga olib kelishi mumkin. Aminofillin bilan bir vaqtda qo'llanganida, qonda insulinning darajasini oshishi mumkin.

Nomutanosiblik: Preparat tiopental bilan nomutanosibdir.

Maxsus ko'rsatmalar
Buyrak yetishmovchiligi bo'lgan patsientlarda infuziyani boshlashdan oldin diurezni va qon plazmasidagi kaliyning darajasini tekshirish kerak, chunki preparat giperkaliemiyani rivojlanishiga olib kelishi mumkin.
Endokrin bezlarining funktsiyasi buzilganida preparat ehtiyotkorlik bilan qo'llanadi. Preparat insulin va o'sish gormonining sekretsiyasini rag'batlantirishi mumkin.
Homiladorlik yoki emizish davrida qo'llanishi
Preparat yo'ldosh orqali o'tadi, shuning uchun homiladorlik davrida uni faqat ona uchun davolashdan kutiladigan foyda, homila uchun potentsial havfdan ustun bo'lgan holatdagina qo'llash mumkin. Preparatni emizish davrida qo'llashga nisbatan ma'lumotlar yo'q.
Bolalarda qo'llanishi
Preparat 3 yoshdan katta bolalarda qo'llanadi.
Avtotransportni boshqarish yoki boshqa mexanizmlar bilan ishlashda reaktsiya tezligiga ta'sir qilish qobilyati
Avtotransportni boshqarish yoki boshqa mexanizmlar bilan ishlash vaqtida ehtiyotkorlikka rioya qilish kerak, chunki preparat bosh og'rig'ini chaqirishi mumkin.

Dozani oshirib yuborilishi
Simptomlari: buyrak yetishmovchiligi, gipoglikemiya, metabolik atsidoz.
Davolash: dozasi oshirib yuborilganida preparatni infuziyasini to'xtatish kerak. Fiziologik reaktsiyalarni monitoringini o'tkazish va organizmning hayotiy muhim funktsiyalarini tutib turish kerak. Zarurati bo'lganida ishqorlashtiruvchi vositalar va diurezni oshirish uchun vositalar (saluretiklar), elektrolitlarning eritmalari (0,9% li natriy xloridi eritmasi, 5% li glyukoza eritmasi) ni yuborish kerak. Davolash simptomatik.

Chiqarilish shakli
100 ml dan eritma shisha flakonda.
1 tadan flakon tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti
Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.
Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati
3 yil.
Yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi
Retsept bo'yicha.

Ishlab chiqaruvchi:
Guizhou Tiandi Pharmaceutical Co., Ltd.
No.6 Baokang Road, Hongxing Pharmaceutical Industrial Park, Dingxiao Town, Xingyi City, Qianxi'nan Bouyei and Miao Autonomous Prefecture, Guizhou Province, Xitoy.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining egasi:
Avison Pharmaceuticals Pvt. Ltd.
Plot No 1 Shop no S-201 And S-202, Krishna Tower-2, Pocket-7, Sector-12 Dwarka, New Delhi, Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar) ni qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili

"SHAYANA FARM" MChJ

O'zbekiston Respublikasi, 100098, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qora-Qamish 1/4, Gulsaroy ko'chasi, 19 uy.

Tel.: +998 71 207-21-91,92,93,95,96;

Faks: +998 71 207-21-94;

Uyali tel.: +998 90 830-72-87

E-mail: pharmacovigilance@shayanafarm.com

Web-сайт: shayanafarm.com